

## BLINGVIZMNING O'ZIGA HOS HUSUSIYATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10684228>

**G.M.Axmadjonova**

*Farg'ona davlat universiteti doktoranti*

### **Annotatsiya**

*Ushbu maqolada blingvizm va uning turlari, blingvist inson shakllanishida ijtimoiy muhitning ta'siri, til o'rganishdagi olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari haqida fikr yuritilgan.*

### **Kalit so'zlar**

*Blingvizm, kongnitiv xususiyat, trilingvizm va multilingvizm.*

Blingvizm lotincha so'z bo'lib, "bi" – ikki, "lingua" – til, ya'ni ikki tillilik ma'nosini bildiradi. Istiloh sifatida bilingvist – kundalik hayotda ikkita til: o'z ona tili va bitta chet tilini qo'llash, unda so'zlasha olish qobiliyatiga ega kishini bildiradi. Bugungi kunda insonlar bir vaqtning o'zida ikki-uchta tilni o'rganayotganiga guvoh bo'lyapmiz. Xo'sh, ularning hammasini bilingvistlar deb atash mumkinmi?

Demak, bilingvistlar ikkinchi tilni xuddi o'z ona tilidek mukammal bilgan va so'zlasha oladigan shaxslardir. Bilingvistlarning til o'rganishi – ancha mushkul masala. Agar bola ikki va undan oshiq tilda so'zlashiladigan oilada o'ssa, u ikkala tilni ham bimalol o'rgana oladi va ushbu tillarda ravon so'zlashadi. Biroq bilingvlarning so'z boyligi har bir til monolingvistik egasining so'z boyligiga qaraganda pastroq. Shu bilan birga, bilingv bir paytning o'zida ikki tilda so'zlashadi, shunga ko'ra buni kamchilik deb atab bo'lmaydi. Demak, uyda ikki tilda so'zlashuvchilar tarbiyasi ostida katta bo'lgan bolalar muammosiz ikkala tilni ham baravariga o'rganadi. Savodxonlik borasida esa bilingvlar ancha oqsoqlanadi. Ikkala tilni savodli o'rganish uchun ikki til yozuvi bir xil tizimda bo'lishi lozim. Agar farqlanadigan bo'lsa, bu bola tillarning har birida qanday ta'lim olganiga bog'liq bo'ladi.

### **Blingvizmning kognitiv xususiyatlari**

Umumiy intellekt kontekstida bilim egallash qobiliyatida sezilarli farq yo'q, demak, bilingvlar monolingvlarga qaraganda aqlliyoq emas. Biroq monolingv va bilingvlarning e'tibor va seleksiya bilan bog'liq fikrlashida farq bor. E'tibor jalb qiladigan vaziyatlarda muhim axborotlarni tanlash qobiliyati bilingvlarda ko'proq rivojlangan. Va bu u qadar e'tiborga molik emas, chunki bu qobiliyat ko'plab

yuqori fikrlash va harakatlarni amalga oshirish jarayonlari asosida shakllanadi. Siz shosseda yuqori tezlikda ketyapsiz, miyangizda bir talay fikr: marshrut qanday yo'naltirilgani, siz uchun kerakli yo'l, yo'l belgilari – miyangizda ko'p ma'lumot saqlashingiz va ko'rsatkichlarni kuzatishingiz zarur. Siz e'tiboringizni jamlay olishigiz kerak. Bilinglar buning uddasidan chiqadi. Agar odam bilingvist bo'lsa, u doimiy ravishda ikki tilda faol so'zlashadi. Bu seleksiya mexanizmida kerakli to'g'ri tilni tanlashda ichki ziddiyat kelib chiqishini anglatadi. Fikrimizni izohlaydigan bo'lsak, bajariladigan funksiyalar tizimi konkret vaziyatda talab etiladigan tilni tanlash uchun qo'llaniladi va aynan shu jarayon bilingvlarda faol bo'lgan kognitiv vazifalarga asoslanadi.

Bilingvlarning kognitiv qarishi va ularda uchraydigan kasalliklar

Qarish sirlarini o'rganish tadqiqotlaridan birida aniqlanishicha, aqli zaif bemorlar, ayniqsa Alzgeymer kasalligining ilk belgilari bilingvlarda kechroq namoyon bo'ladi. Ma'lumki, kasallik miyada rivojlanadi va uni shikastlaydi. Shuningdek, bilingv bemorlar uzoq vaqt normal faoliyat ko'rsata oladi.

Kompensatsiyalangan natijalar ham bor. Bu muhim yangilik ko'p tadqiqotlarda takrorlangan.

Shunga o'xshash sinovlar bilingvistb bemorlarda ehtiyotkorlik bilan o'tkazildi. Biz ularning kognitiv darajalari, miyalari va hokazolar haqidagi ma'lumotlarni to'pladik. Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, ushbu ko'rsatkichlarning barchasi kasallik sabab shikastlanadi. Masalan, Alzgeymer kasalligi miyaning o'rta qismi, xotira qismi – gippokampni shikastlaydi. Bilingvizm bemorlarda shikastlanish kuchliroq bo'ladi, lekin ular shikastlanish bilan ham uzoq vaqt faoliyat ko'rsatishi mumkin. Bilingvizm tilni murakkablashtiradi, bilingv shaxslar esa doim ikki tildan birini tanlashi kerak bo'ladi. Bu vaziyat miya faoliyatini doimiy ravishda o'zgartiradi va bu qarish jarayonini sekinlashtiradi. Shunday ekan, bilingvizm rasmiy ta'lim va boshqa narsalarga bir xil ta'sir ko'rsatadi, bu kognitiv zaxiraga hissa qo'shadi hamda bilim olish qobiliyatini himoya qiladi.

### **Trilingvizm va multilingvizm**

Ko'plab tadqiqotlarda uch va undan ko'proq tillarda so'zlashadigan trilingvist va multilingvist insonlar haqida ham ma'lumotlar uchraydi. Biroq boshqa hech qanday farq yo'qligiga ishonch hosil qilish qiyin. Biz monolingv va bilingvlarni taqqoslaganda tillarni bilishidan tashqari hech borada farqlanmasligiga ehtiyotkorlik bilan yondashamiz. Biroq ular qatoriga trilingv va multilingvistlar qo'shilganda ko'p narsa farqlanadi. Masalan, ko'p odamlar iqtidorli ekanliki, ta'lim olishga qiziqishi va ko'p til o'zlashtirish qobiliyatiga ega bo'lgani sabab multilingvist bo'lishi mumkin. Ushbu farqlarning barchasi ularning test

natijalariga taʼsir koʻrsatishi mumkin. Bundan tashqari, multilingvist va bilingv bolalar oʻrtasida hech qanday farq topolmagan tadqiqotlar koʻp. Shuningdek, ushbu muammo katta yoshlilarda, hatto bemorlarda oʻrganilgan tadqiqotlar ham mavjud. Tadqiqotlarning ayrimlari katta yoshlilar qancha koʻp tilni bilsa, shunchalik aqldan ozishdan himoyalalmaganligi aks ettiradi.

### **XULOSA**

Bilingvizmni tadqiq qilish endi oʻrganilayotgan mavzulardan biri va bu borada ochilmagan masalalar hali koʻp. Hozir tadqiqotchilar bilingvizm mexanizmi va bilingvist hamda monolingvlar ongidagi farqni aniqlash ustida ish olib bormoqda. Soʻnggi vaqtlarda, bilingvizm oqibatida nega va qanday ong oʻzgarishini aniqlash maqsadida miya imidjingini tadqiq etish boʻyicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu masala yuzasidan javoblar hali aniqlanmadi, biroq olimlarda javobni qayerdan topish gʻoyalari bor.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. [https://daryo.uz/2019/07/16/ikki-tilni -birdan -bilish -rostdan-foydalimi-bilingvizm-hodisasi-haqida/](https://daryo.uz/2019/07/16/ikki-tilni-birdan-bilish-rostdan-foydalimi-bilingvizm-hodisasi-haqida/)
2. Oʻz ME. Birinchi jild .Toshkent 2000 yil
3. Amaliy psixolog Vedmesh N.A. "PsychoMed" tibbiy-psixologik markazi spikeri
4. Barinova .I.A. Nesterova O.A. "Ikki tilli til shaxsining baʼzi xususiyatlari haqida" // Filologiya fanlari. Nazariya va amaliyotga oid savollar .T: Diplom , 2015. No 4 .1-qism
5. Irina Makarova „Ikki tillilik nima“?
6. [https://sinaps.uz/maqola/8353/](https://sinaps.uz/maqola/8353/studysmarter.us/explanations/english/international-english/bilingualism)  
[studysmarter.us/explanations/english/international-english/bilingualism](http://studysmarter.us/explanations/english/international-english/bilingualism)  
[iq.hse.ru/news/226168618.html](http://iq.hse.ru/news/226168618.html)  
[englex.ru/why-is-it-important-to-learn-2-languages](http://englex.ru/why-is-it-important-to-learn-2-languages)  
[postnauka.ru/faq/67660](http://postnauka.ru/faq/67660)  
[postnauka.ru/video/45963](http://postnauka.ru/video/45963)  
[mel.fm/blog/darya-ovsyannikova/38179-kratky-gid-po-bilingvizmu](http://mel.fm/blog/darya-ovsyannikova/38179-kratky-gid-po-bilingvizmu)